

## **I. 8 MART – XALQARO XOTIN-QIZLAR BAYRAMI MUNOSABATI BILAN G‘OYaVIY MAVZULAR:**

**Asosiy g‘oyaviy mavzular:**

**- Ayolga ehtirom – millatga ehtirom**

Xotin-qizlarga bo‘lgan hurmat xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri ekanini yoritish.

**- Ona – hayot, tarbiya va ma‘naviyat timsoli**

Ona obrazi orqali milliy ma‘naviyat, oila muqaddasligi va avlodlar davomiyligini targ‘ib qilish.

**- Milliy an‘analarimizda xotin-qizlarning o‘rni**

Urf-odatlar, marosimlar va oilaviy qadriyatlarda ayollarning beqiyos hissasini ochib berish.

**- 8 mart – e‘zoz, e‘tibor va minnatdorlik bayrami**

Bayramning faqat tabrik emas, balki qadrlash va e‘tirof ma‘nosini yoritish.

**- Oila mustahkamligi – jamiyat barqarorligi garovi**

Oilada ayolning o‘rni va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.

**- Zamonaviy ayol – milliy qadriyatlar davomchisi**

Bugungi xotin-qizlarning zamon bilan hamnafas bo‘la turib, milliy o‘zlikni asrab kelayotgani.

**- Xotin-qizlar baxti – xalq farovonligi mezon**

Ayollar huquqi, qadri va farovonligi umumjamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ekani.

**- Bayramlar – ma‘naviy tarbiya va birlik maktabi**

Umumxalq bayramlarining yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashdagi o‘rni.

## **II. NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMI MUNOSABATI BILAN G‘OYaVIY MAVZULAR:**

**Asosiy g‘oyaviy mavzular**

**- Navro‘z – yangilanish va hayot bayrami**

Tabiat uyg‘onishi, inson ruhiyati va jamiyat hayotidagi yangilanish g‘oyasini targ‘ib qilish.

**- Navro‘z – milliy qadriyatlar va urf-odatlar timsoli**

Asrlar davomida shakllangan an‘analar, marosimlar va xalq og‘zaki ijodining bayramdagi ifodasi.

**- Navro‘z va avlodlar davomiyligi**

Katta-kichik o‘rtasidagi mehr-oqibat, ustoz-shogird an‘analari, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash.

**- Navro‘z – bag‘rikenglik va totuvlik bayrami**

Turli millat va elat vakillarini birlashtiruvchi umuminsoniy qadriyat sifatida Navro‘z.

**- Sumalak – sabr, mehr va birdamlik ramzi**

Sumalak tayyorlash marosimi orqali jamoaviylik, sabr-toqat va hamjihatlik g‘oyalarini ochib berish.

**- Navro‘z va mehr-shafqat an‘analari**

Keksalar, ehtiyojmandlar holidan xabar olish, saxovat va ezgulikni targ‘ib qilish.

**- Navro‘z – tabiatga ehtirom va ekologik madaniyat bayrami**

Atrof-muhitni asrash, yerga, suvga, daraxtga ehtirom ruhini shakllantirish.

**- Milliy taomlar va hunarmandchilik – madaniy merosimiz**

Navro‘zdagi an‘anaviy taomlar, xalq hunarmandchiligi orqali milliy o‘zlikni namoyon etish.

### **III. 8 MART - XALQARO XOTIN-QIZLAR BAYRAMIGA TEZISLAR:**

- 8 mart – xotin-qizlarga hurmat, e‘zoz va minnatdorlik ifodasi bo‘lgan umumxalq bayramidir.
- Ushbu bayram ayol zotiga bo‘lgan qadimiy milliy ehtirom an‘analarining zamonaviy davomidir.
- Xalqimiz madaniyatida ona, opa-singil, oila bekalari muqaddas timsol sifatida ulug‘langan.
- Umumxalq bayramlari orqali milliy qadriyatlar, ma‘naviy meros va oilaviy an‘analar avloddan-avlodga uzatiladi.
- 8 mart bayrami xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini yanada yuksak darajada namoyon etadi.
- Ayollarning ilm-fan, madaniyat, sport va ishlab chiqarish sohalaridagi yutuqlari bayram tadbirlarida keng yoritiladi.
- Bayram orqali oilada mehr-oqibat, jamiyatda o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik mustahkamlanadi.

- Xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish milliy taraqqiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri ekani ta’kidlanadi.

- 8 mart tadbirlari yosh avlodni onaga hurmat, ayolga e’tibor ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

- Xotin-qizlar baxti va farovonligi – jamiyat barqarorligi va kelajak taraqqiyotining asosidir

- 8 mart – ayol zotiga bo‘lgan hurmat va minnatdorlikni yurakdan ifoda etish kunidir.

- Ona – hayot manbai, oila va jamiyat ma’naviyatining asosidir.

- Xotin-qizlarni e’zozlash – milliy qadriyatlarimizni asrash demakdir.

- Ayol baxti va qadri jamiyat taraqqiyotining eng muhim mezonidir.

- Milliy an’analarimizda ona va ayol azaldan muqaddas timsol sifatida ulug‘langan.

- Xotin-qizlarga yaratilgan imkoniyatlar – kelajak avlod baxti uchun sarmoyadir.

- Ayol ma’naviyati yuksak bo‘lgan jamiyatda tinchlik va barqarorlik ustuvor bo‘ladi.

- 8 mart – mehr, e’tibor va insoniylik bayrami sifatida qalblarimizni birlashtirad

#### **IV. NAVRO‘Z UMUMXALQ BAYRAMI TEZISLAR:**

##### **1. Navro‘z bayrami — tabiat va hayot bilan uyg‘unlik ramzi**

- Navro‘z “yana ko‘klar ochilishi”, “yangi yil boshlanishi” ma’nosini anglatadi. Bayram insonni tabiat bilan uyg‘unlikka, mehr-oqibat va yaxshilikka chaqiradi.

##### **2. Navro‘z — umumxalq bayrami sifatida milliy birlikni mustahkamlaydi**

- Bu kun barcha millat va elatlar uchun umumiy bayram bo‘lib, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni targ‘ib qiladi.

##### **3. Milliy an’analar va urf-odatlarini asrab qolishdagi ahamiyati**

- Navro‘zda oila va qo‘shnilar orasida mehmondo‘stlik, qadr-qimmat va hurmat amaliyotga aylanadi. Xalq o‘yinlari, taomlar va milliy liboslar orqali an’anaviy madaniy meros saqlanadi.

##### **4. Ma’naviy va axloqiy qimmatlar**

- Bayram insonga yaxshilik qilish, qaram-qarshi munosabatlarni bartaraf etish, qo‘shni va yaqinlarga yordam berish kabi fazilatlarni targ‘ib qiladi.

##### **5. Iqtisodiy va ijtimoiy jihatlar**

o Navro'z bayrami mahallalarda ko'plab tadbirlar, yarmarka va hunarmandchilikni rag'batlantirib, ijtimoiy faollikni oshiradi.

#### **6. Bolalar va yoshlar uchun tarbiyaviy ahamiyat**

o Navro'z orqali yosh avlod milliy urf-odatlar, qadriyatlar va tarix bilan tanishadi. Bu bayramdagi o'yinlar, sahnalar va musobaqalar ularning ijodiy faolligini ham qo'llab-quvvatlaydi.

#### **7. Navro'z — umuminsoniy qadriyatlar bayrami**

o Bayram nafaqat milliy, balki umuminsoniy ma'noda ham yangi umid, hayotni qadrlash va hamkorlik ramzi sifatida xizmat qiladi.

#### **8. Navro'z — yilning yangi boshlanishi va tabiatni ehtirom qilish ramzi**

Bayram har yili bahorning kelishi bilan tabiatning uyg'onishi, hayotning qayta avj olishi, insonni yangilik va umidga chorlaydi.

#### **9. Umumxalq bayrami sifatida millatlararo do'stlik**

Navro'z barcha xalq va millatlar uchun birdek qadrlil, milliy hamjihatlik va hamkorlikni targ'ib qiladi.

#### **10. Milliy an'ana va qadriyatlarni saqlashdagi ahamiyati**

Bayramda an'anaviy taomlar, liboslar, milliy o'yinlar va hunarmandchilik amaliyotlari orqali madaniy meros yosh avlodga yetkaziladi.